

“IOTEKA-BANK” ATIBNING 2025 YIL NATIJALARI BO’YICHA AMALGA OSHIRILGAN KORPORATIV BOSHQARISH TIZIMINI BAHOLASH HAQIDAGI XULOSA.

“Ipoteka-bank” ATIB (keyingi o’rinlarda - Bank)ning korporativ boshqaruv tizimini baholash to’g’risidagi xulosa O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 08.09.2022 yildagi 03802223-sonli, investitsiya maslahatchisi faoliyatini amalga oshirish haqidagi xabarnomani qabul qilganligi to’g’risidagi tasdiqnomaga asosan faoliyat yurituvchi "Winvestment Consult" MChJ (keyingi o’rinlarda – mustaqil tashkilot) investitsiya maslahatchisi tomonidan tayyorlangan.

Baholashning asosiy maqsadi Bankdagi korporativ boshqaruv tizimining holati to’g’risida mustaqil ob’ektiv fikrni shakllantirishdir.

Bankdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash O’zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo’mitasi (*hozirgi kunda - O’zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi*) va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markaz tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan Savolnoma asosida amalga oshirildi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash Bank tomonidan taqdim etilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilingan ma’lumotlar asosida amalga oshirildi. Bank taqdim etilgan hujjatlar, hisobotlar, ma’lumotlar va boshqa materiallarning to’liqligi, mazmuni va ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi. Olingan hujjatlarning, ma’lumotlar va boshqa materiallarning asl nusxaliligi va ishonchliligi tekshirilmadi hamda bahslashilmadi.

Mustaqil tashkiloti faqat Bank tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib, Bankdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash bo’yicha o’z fikrlarini bildirish uchun javobgardir.

Bank tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar, shu jumladan ichki korporativ hujjatlar, hisobotlar va boshqa ma’lumotlar Bankdagi korporativ boshqaruv holati to’g’risida mustaqil fikrni shakllantirish va ifoda etish uchun etarli asos yaratdi.

Baholash natijalariga ko’ra, “Ipoteka-bank” ATIBning korporativ boshqaruv tizimining darajasi yuqori deb tan olingan va korporativ boshqaruv tizimi darajasini baholashning yakuniy natigasi 720 ball yoki mumkin bo’lgan maksimal natijaning 60% tashkil etadi.

"IPOTEKA-BANK" ATIB
korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha yig'ma jadvali

№	Yo'nalishlar	Savollar soni	Berilishi mumkin bo'lgan ballar		Haqiqiy baho
			minimum	maksimum	
1	Korporativ boshqaruv Kodeksini joriy qilishga tayyorlanish holatini baholash	13	-135	135	130
2	Korporativ boshqaruv Kodeksi tavsiyalariga amal qilinishini baholash	37	-360	360	260
3	AJ tashkiliy tuzilmasi muvofiqligini baholash	3	-30	30	25
4	Tanlov o'tkazilishini baholash	5	-45	45	25
5	XMHS va auditning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tishni baholash	3	-50	50	50
6	Zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy qilishni baholash (ISO, ERP, NIOKR va boshqalar.)	5	-55	55	25
7	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320	300
8	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150	-150
9	AJ faoliyatining boshqa yo'nalishlarini baholash	25	-205	55	55
	Jami	100	-1200	1200	720

Baholash natijasi foizda	60%
---------------------------------	------------

Rahbar



X.Toxtayeva

Xulosa chiqarilgan sana: 2026/04/10